

XORAZM ARXEOLOGIK-ETNOGRAFIK EKSPEDITSIYASI MATERIALLARI ETNOGRAFIK MANBA SIFATIDA

Hakimova Aziza Hikmatjon qizi.

Buxoro viloyati Kogon tuman

11-maktab tarix fani o'qituvchisi .

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm arxeologik-etnografiya ekspeditsiyasi a'zolari K.L.Zadixina va T.A.Jdankolarning izlanishlari jarayonida yig'ilgan etnografik materiallar va ularning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ekspeditsiya, madaniyat, qo'ng'irot, qipchoq, kiyim-kechak, etnonim

Annotation. The article discusses the ethnographic materials collected during the research of the Khorezm archaeology-ethnography expedition by K.L.Zadikhin and T.A.Jdanko and their significance.

Keys word. Expedition, culture, Uzbek, settlement, nomad, place, clothing, ethnonym.

Аннотация. В данной статье рассматривается об этнографических материалах и их значении, собранных в ходе исследований К.Л.Задыхиной и Т.А.Жданко, участников Хорезмской археолого-этнографической экспедиции.

Ключевые слова. Экспедиция, культура, кунград, кипчак, жилища, одежда, этноним.

Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi o'zida turli soha mutaxassislarini jamlagan kompleks tadqiqot guruhi bo'lgan. Unda arxeolog, antropolog, tilshunos, geomorfolog, va etnograflarning mashaqqatli izlanishlari davomida to'plangan boy arxeologik va etnografik materiallari nafaqat Xorazm tarixi balki, O'rta Osiyo tarixi, arxeologiyasi, etnografiyasi uchun muhim manba hisoblanadi.

Ekspeditsiya tarkibida urushdan keyingi yillarda qo'shilib, faoliyat yuritgan etnograflardan Zadixina Klavdiya Leontyevna Xorazm vohasi o'zbeklarining etnik

tarkibi va ijtimoiy turmush tarzini dala tadqiqotlari jarayonida o'rganib o'zidan boy meros qoldirgan. U o'zi rahbarlik qilgan guruh a'zolari bilan Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Shumanay, Qipchoq tumanlarida 1946-1952-yillar oralig'ida faoliyat olib borgan¹.

Qoraqalpoq va qozoqlarga yaqin elat sifatida Xorazm shimoliy o'zbeklari "dashtiqipchoq" o'zbeklari deb ham nomlanadi. Ularning xotiralarida ko'chmanchi va yarimko'chmanchi turkiyzabon ajdodlari, qabilaviy ittifoqlari hamda Orolbo'yi va Sirdaryo havzalarida o'zbeklar ittifoqiga kirganligi haqidagi rivoyatlar saqlanib qolgan. Xorazm ekspeditsiyasi faoliyati davomida Qo'ng'iro't va Qipchoq tumanlarining etnik xaritasi tuziladi va unda kichik o'zbek qabila va urug'larining nomlari, shuningdek, qo'shni qozoq, qoraqalpoq, turkmanlarning yashash joylari ham belgilangan.

Etnik xaritalar tuzish uchun shahar va qishloqlarni o'rganish jarayonida Xorazm Shimoliy o'zbeklarning tarkibi, turli xil qabila-urug'lar nomlari aniqlandi. Urug'-aymoqlar va qabilalar to'g'risida to'plangan etnografik ma'lumotlar Xorazmning o'zbek aholisi etnogenezi va etnik tarixi masalalarini yechishga yordam berdi.

K.L.Zadixinaning qayd etishicha, shimoliy o'zbeklar etnonimlarini taqqoslash Orolbo'yidagi boshqa xalqlar etnogenezining ba'zi xususiyatlariga oydinlik kiritgan. Bundan tashqari olim boshqa tarixiy manbalarni, xususan, rus va O'rta Osiyo manbalarini o'rgangan holda, Xorazm o'zbeklari orasida eng muhim qabila guruhlarini aniqlagan. Shimoliy o'zbeklar etnonimlarini o'rganishning yana bir jihati, uning bo'g'inlarga bo'linishini kuzatgan.

Olima kuzatishlari asosida ushbu an'anani qo'ng'iro'tlar misolida qo'llagan. Ular to'rt guruhga bo'lingan, ularning har biri bir nechta yirik avlodlarni o'z ichiga olgani qipchoqlar esa sakkiz avlodi borligi ("segiz-urug' qipchoq") va to'rt guruhga bo'linganligi aniqlaydi. Olima etnografik ilmiy faoliyatining oxirgi yillarida Qarshi, Surxondaryo, Farg'ona vodiysi va Toshkent o'zbeklarining etnik tarkibini tadqiq etish bilan ham shug'ullangan.

¹ Жданко.Т.А. Этнографические исследования и этнографы Хорезмской экспедиции //ЭО, № 2.-1997.-С. 17

Tajribali muzey xodimi sifatida K.L.Zadixina xalqning uy-joyi, kiyim-kechagi, oziq-ovqati singari moddiy madaniyatiga alohida e'tibor qaratgan. Natijada moddiy madaniyatga oid ma'lumotlarning batafsil tavsifi va fiksatsiyasini chizmalar, rasmlar, fotosuratlarini muzey uchun eksponatlar to'plami bilan birlashtirgan.

Xorazm o'zbeklarining doimiy yashash joyiga o'tish jarayoni ham etnografik guruh xodimlar tomonidan tahlil qilinib, o'rganilgan. Etnograf olimi o'zbeklarning an'anaviy uy-joylarini tadqiq qilgan, xususan, o'rganilayotgan davrda o'zbeklar orasida o'tovlar deyarli mavjud bo'lmasada, shimolda masalan, Qo'ng'iro't tumanida ushbu ko'rinishdagi uylar hali ham mavjudligi kuzatilgan. O'zbek o'tovlari qozoq va qoraqalpoqlarnikiga qaraganda ancha katta, uch barobargacha og'irroq bo'lgan, chunki ular yog'ochdan qurilgan va allaqachon doimiy turar-joyga aylangandi.

Shimoliy o'zbek guruhining ishi tarixiy-etnografik jihatlar bilan cheklanmagan. Zamonaviy turmush tarzi, oilasi, urf-odat, marosimlari bo'yicha keng ma'lumotlar to'plangan. K.L.Zadixinaning ilmiy ma'ruzalari va maqolalarida birinchi marta o'zbeklarning kundalik hayotida sodir bo'lgan barcha o'zgarishlar va saqlanib qolgan an'analari yoritilgan etnografik tavsifi taqdim etilgan.

K.L.Zadixinaning ushbu ekspeditsiya jarayonida yig'gan materiallari "O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari" ko'p tomli tarixiy-etnografik ocherklarida, "O'zbeklar" va "O'zbeklarning kiyim-kechaklari" nomi bilan muhrlangan. Bundan tashqari "Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi hisobotlari"da uning "Amudaryo deltasi o'zbeklari" monografiyasi yaratilishiga asos bo'lgan.

Butun umrini ilm-fanga bag'ishlagan, tarix fanlari nomzodi etnograf olimi Tatyana Aleksandrovna Jdankoning ilm-fanga qiziqishi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Dastlab 1932-yilda ilk bor qoraqalpoqlar hududiga kelgan. Besh yildan so'ng vataniga qaytib, Moskvadagi SSSR xalqlari muzeyida O'zbekiston bo'limida faoliyat yuritadi. Urushdan keyingi davrda S.P.Tolstov rahbarligida ilmiy faoliyatiga yo'l ochiladi. T.A.Jdanko ekspeditsiya tarkibida 1945-1949-yillarda Qoraqalpoq etnografik guruhiga rahbarlik qiladi.

1964-yilda T.A.Jdanko doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan “Qoraqalpoq ASSR tarixi ocherklari” nomli kitobni qoraqalpoqlik olimlar bilan hamkorlikda tayyorlagan. Ko’chmanchilik muammolari bo’yicha o’z tadqiqotlarini davom ettirib, T.A.Jdanko 1970-1980-yillarda xalqlar taraqqiyotining o’ziga xos xususiyatlari va qabilaviy tuzilish mavjudligi qayd etilgan bir qancha ilmiy maqolalarini yozadi².

T.A.Jdanko an’anaviy va unga yaqin tarixiy-etnografik mavzulardan tashqari, yangi va eng yangi davr etnografiyasi muammolarini ham tadqiq etishga faol kirishgan³.

1970-yildan uning asosiy ilmiy faoliyatining yo’nalishi “O’rta Osiyo va Qozog’iston tarixiy-etnografik xarita”sini tuzish uchun keng qamrovli materiallar yig’ishga qaratilgan edi. Olima 1986-yilda nashr etilgan “Qoraqalpoq ASSRning qadimgi davrdan hozirgi kungacha tarixi” asarining muallif va muharrirlaridan biridir.

T.A.Jdankoning ilmiy va bibliografik hayot tavsilotlari uning shogirdi etnograf S.K.Kamalov tomonidan ocherk sifatida yoritilgan. Ushbu ocherklar to’plami T.A.Jdanko tavalludining 80-yillik yubileyiga bag’ishlanib 1989-yil “O’rta Osiyo va Qozog’iston xalqlar etnik tarixi va an’anaviy madaniyati” nomi bilan Nukusda nashr qilingan. Ushbu kitob ham T.A.Jdankoning ilmiy ishlar ro’yxatida beriladi.

Ko’psonli va ko’pmillatli ekspeditsiyaning mashaqqatli izlanishlari davomida qoraqalpoqlar tarixi va etnografiyasi muammolariga bag’ishlangan bir qancha asarlar nashr etilgan. Ana shunday fundamental tadqiqotlar jumlasiga 1950-yilda Qoraqalpoqlarning tarixiy etnografiyasidan ocherklar, 1952-yilda Xorazm vohasidagi qoraqalpoqlar, 1958-yilda Qoraqalpoqlarning xalq bezak san’ati haqida ocherklar ommaga taqdim etiladi. 1962-yilda nashrdan chiqqan ko’p tomlik “O’rta Osiyo va Qozog’iston xalqlari” tarixiy-etnografik ocherklarida “Qoraqalpoqlar” turkumi ostida tadqiqot materiallari e’lon qilinadi.

² Брусина О.И. Татьяна Александровна Жданко. // ЭО, № 2. 2008.-С. 189

³ Дониёров А.Х. Хоразм археология-этнография экспедицияси Ўзбекистон этнография фанида. –Т: .2007.-Б 16.

Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining ushbu jonkuyar ishtirokchilari nafaqat tadqiqotchi sifatidagi ajoyib iste'dodi, balki ulkan ilmiy va tashkilotchilik qobiliyati, cheksiz mas'uliyat hissi bilan birlashtirilgan edi. Ular o'z faoliyati davomida nafaqat Xorazm vohasi balki, O'rta Osiyo xalqlari tarixi va etnografiyasiga oid qimmatli materiallar yig'ib, voha xalqlarining xo'jaligini, madaniyatini, etnik muammolarini dala tadqiqotlari va ilmiy-nazariy nuqtai-nazardan yoritib berdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Дониёров А.Х. Хоразм археология-этнография экспедицияси Ўзбекистон этнография фанида . –Т.: 2007.
2. Брусина О.И. Татьяна Александровна Жданко . // ЭО, № 2. 2008.
3. Жданко.Т.А Этнографические исследования и этнографы Хорезмской экспедиции //ЭО, № 2. -М.:1997
4. Клавдия Леонтьевна Задыхина. (Группа товарищей) //Советская этнография . №4. Москва. 1970
5. Дониёров А.Х, Бўриёв О, Аширов А.А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи.-Т.: Янги нашр,2011.
6. www.ziyounet.uz